

**O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT MUZEYI: TASHKIL ETILISHI TARIXI VA  
KOLLEKSIYALARING SHAKLLANTILISHI**

**Kayumov Sukhrob Sobirovich**

*Kamoliddin Behzod National Institute of painting and design.*

*tel: +998339009387 sukhrob.86@icloud.com.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, O'zbekiston tasviriy san'ati tarixida dunyoni anglash va formal-plastik xarakterdagi konsepsiyalarni izlash davri sifatida muxrlandi. San'atda dahshatli urush va noinsoniylikni boshdan kechirgan insonning ichki olamiga e'tibor qaratildi, avlodidan ma'naviy komil insonni qidiruvchi zamonaviy qahramonlar mavzusi qayta tiklana boshlandi. Bu jarayon O'zbekiston davlat san'at muzey faoliyatida ham munosib o'rinni qoldirdi. Man etilgan, ko'pchiligi "formalistlar" deb ayblangan rassomlarning ijod na'munalariga xam muzey ekspozitsiya zallarini bo'lmasa-da, zaxira xonalari eshigini ochdi. O'n yil davomida bo'limga yuzdan ortiq tasviriy san'at na'munalari qo'shildi.

**Kalit so'zlar:** San'at, muzey, portret, janr, rangtasvir, restavratsiya, konservatsiya, realism, rassom, avangard,

1930-1950 yillarda sovet san'atining asosiy tendensiyalari yanada rivojlanish O'zbekiston rassomlik san'ati ziddiyatli va dramatik lahzalardan qochib kutulolmadi. Sotsialistik realizmning ijodiy uslub emas, balki badiiy usul sifatida tushunilishi, tor nukta nazardan nigoh tashlashni tug'dirgan san'atdagi meveriylikning tasdiklanishi, badiiy ananalar mohiyatining cheklangan tarzda tushunilishi san'at rivojiga tug'anok bo'ldi. Vaxolanki, taraqqiyot uchun badiiy ijodkorlik yorqinligi muhim edi. Avangard san'ati ham amaliyotda, ham nazariy tadqiqotlarda man etilgan hodisaga aylandi. Kuplab rassomlarning ijodiy tushunchasi bo'kildi, A. Volkov, Usto Mumin (A. Nikolaev), N. Kashina, U. Tansikboyev kabi buyuk rassomlar uz ijodiy izlanishlarida avangarddan realizmga chekindilar. Bu uta murakkab, evrilishlar davri bo'lib, unda nafakat bitta badiiy usuldan boshqasiga o'tildi, mohiyatan keskin me'yoriy-huquqiy shakllarda jamiyat, madaniyat, san'atda kadriyatlarni kayta baholash hodisasi yuz berdi. Ayni vaqtida realistik yunalishda ishlagan qator rassomlar ijtimoiy mavzudan chekinib, asosan peyzaj, natyurmort janrida asarlar yaratib, etarli darajada muvaffakiyatli ijod kildi.



“Bedanaboz”

Nikolayev A. V. (Usto Mumin) (1897 1957)

Masalan, DSM kolleksiyasida qoyilmakom ishlar mavjud. 1920 yillarga mansub A. Volkov ijodida novatorlik ruhi hamon kuchli bulib kolayotgandi. Bular «Musikachilar», «O’zbek kushiqchilari», «Eski shaxar kuchasi», «Dehqonlar dam olishda» va boshqa shu kabi asarlarda rassom o’zbek halkining an’anaviy maishiy hayotini tasvirlabgina qolmay, ayni paytda kundalik hayotda ruy beraetgan yangiliklar va ijtimoiy o’zgarishlarni xam aks ettirishga o’rindi. Rassom ijodida yangi mavzu va obrazlar paydo bulgan esada, ularning talqinida kubizm va ekspressionizm tasiri kuzatiladi. Eng avvalo rassomning ayrim ishlari uning ijodida avangarddan realizmga utish davri yakkol kuzga tashlanadi. Rassom kartinalari ranglarning o’ziga hosligi va monumental jarangdorligi bilan ajralib turadi. A. Volkovning shaxsiy ko’rgazmalari 1920, 1921, 1923 yillarda Toshkent va Moskva shaxarlarida bo’lib utdi. Kurgazmalarda DSM fondlari uchun kartinalar sotib olindi.

DSM kolleksiyalarida muyqalam sohibi Usto Mumin (A. Nikolaev)ning mashxur «Baxor», «Dutorchi», «Bedanaboz», «Choyxonachi» kabi asarlari mavjud bo’lib, ularda rassomning mohir ijodiy naturasi va shaxsiy karashlari namoyon buladi. Usto Mumindek erkin badiiy shaxsiyatning oyoqqa turishida rus ikona rassomchiligi, xalk san’ati, hususan san’at uymakorligi va ganchkorligi katta tasir ko’rsatdi, yanikim rassom ularga alohida e’tibor qaratgan. Butun ijodi davomida rassom xalk san’ati bilan fahrlanishdan va obrazli talqinining uziga hosligini urganishdan tinmadi, xalk san’atining nafaqat shakliy-plastik hosligi linear ibtidosi, rangin soyasining qattiqkul tonal ishlanmasi, ranglari tarkibi, intixosi, xalk san’ati asarlarining musiqali ritmlari, balki unda xalk hayoti va qadriyatlari talkin etilishini noziklik bilan kabul qildi. DSM jamlanmalarida mavjud bo’lgan rassom ishlarida italyan uygonish klassik an’analaring suprematistik tamoyillari bilan nozik birikmasini qayd etmaslik mumkin emas. Biroq sharqona talqinda etikaga e’tibor, uslubiy ifoda va original yondashuv kishini lol qoldiradi.



"Sevishganlar xaqida afsonasi" 2001 y.

Qodirov G'. 1958Mato, moybo'yoq. 80x180 sm.

Muzey jamlanmasidan urin olgan o'zbek avangardining erkin, dramatik shaxslaridan biri M. Kurzin xisoblanadi. Fojiali takdirga ega rassom butun umri mobaynida hayot va san'atga nisbatan muxabbatini namoyon etdi. Rassom ijodida ikki yunalish - yorqin ifodalangan realizm va grotesk-satirik dekorativlikni qayd etmaslik mumkin emas. Ma'lumki, uning asarlarining aksariyati (1924-1936 yillar) yuk qilingan. Shu bois rassomning DSMda takdim etilgan ishlari alohida axamiyat kasb etadi. «Daraxt kesuvchilar brigadasi», «Selmarshzavod oshxonasi», «Ut uchiruvchilar komandasasi», «Qizil choyxona», «Buket», «Natyurmort» kartinalari rassom ijodiy maxsulining nafakat mikyosi va rang-barangligi, balki rassom ijodi mobaynida realistik yunalish asta-sekin ustunlik kila boshlaganini namoyish etadi.

O'zbek milliy rassomlik maktabining shakllanishiga hissa qushgan yana bir rassom N. Karaxan bo'lgan. Uning «Bugdoy yigishtirish», «Zavod quvurlari», «Salar», «Ayollar daryo buyida», «Pushti toklar», «Er xaydovchilarga yordam» kabi ishlanmalarida zamонавиylit, freskaning monumental tili, plastikaning yirik mikyosi, yorqin ranglar energiyasi sezilib turadi. Rassom tomonidan bajarilgan kartinalar yangi O'zbekiston qurilishining o'ziga hos solnomasi sanaladi. Erkin chizilgan rasm, ritmik kompozitsiya, dekorativlik - Karaxan asarlarning ajralib turadigan jihatlaridan.


O. Tatevosyanning «Kolxozda hordik», «Bozorda», «Rafika portreti», «Hordiq», «Karag'aylar soyasi ostida» kabi DSM jamlanmalaridagi ishlanmalari rassomning shartli, dekorativ ishlardan realistik ijodiy evolyusiyaga, ijod ulining nixoyasida esa yana shartli avangard ishlarga o'tganligini kuzatish imkonini beradi. U O'zbekistonda 1917 yildan 1966 ilgacha yashadi va u tasviriy san'at milliy maktabining asoschilaridan biri sanaladi. 1920 illar boshida O. Tatevosyan rassomlikda milliy uziga hoslikka erishish yullarini axtardi. U Shark miniatyurasini urgandi, uz ijodida esa uning an'analarini har bir predmetda aniq-tiniq aloxida dekorativ rang, kompozitsiyani katiy ritmik asosda tasvirlashni davom ettirishga xarakat qildi. Rassom kartinalarida qandaydir hayratli yorug'lik ifodalangan. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, hayotni ajoyib dunyoda tasvirlashga o'rinish rassomning butun ijodi mobaynida saqlanib qolgan.



“Mening qushig'im” 1967 y.  
Tansiqboyev U.T. (1904- 1974)  
Mato, moybuyoq. 200x235 cm.


DSM kolleksiyasi suzsiz uz yunalishiga ega. Masalan, undan U. Tansikboevning birmuncha keyingi asarlari - «Qora dengiz», «Chorvoq dengizining tug'ilishi», «Senej kuli», shu bilan birga masalan, P. Benkovning kupgina taniqli kartinalari - «Dutorchi kiz», «Unashtirilgan tatar kizi», «Shoxi Zinda», «Jangchiga sovg'a», «Amir amaldori», «Buxorodagi bozor» o'rinni olgan. Ammo muzeyda saklanayotgan rassomlarning har bir asari buyuk rassomlarning meroslarini yaxshirok tushunishga imkon beradi. U. Tansiqboyevning manzarachi sifatidagi mahorati, xatto kichik kartinalari xam hayratga soladi. Rassomning sunggi kunlarida ijodidagi bosh ilhomlantiruvchi kuch doimo tabiat bo'lib koldi.

Kadrdon ulkasi hayotiga daxldorlikni his qilish, O'rta Osiyoning betakror uziga hosligidan, uning maftunkor guzalligidan faxrlanish rassomning eng yaxshi asarlarida uz aksini topdi.



“Dutorchi qiz” 1947 y|  
Benkov P. P. (1879-1949)  
Mato, moybo'yoq. 138.5x170 sm.

SHuningdek, P. Benkovning boshqa hamkasbdoshlari kabi san'atning milliy maktabini shakllantirishdagi hissasi beqiyos. O'zbekistonga kuchib kelish rassomning ijodkorlik maxoratini kashf etishga kumak berdi. Uzok vaqtlar mobaynida u portret obrazlar va tabiat manzaralari, syujet motivlarini nozik did bilan chizib, impriressionizmga sodiq bo'lib qoldi. N. Kashinining «Tushki tanaffus», «Natyurmort», «Raqs darsi» kabi ishlarida uning realistik san'at maktabi makonidagi ijodiy izlanishlarini sezish mumkin. Uning keyinchalik - 1960 illarda chizilgan «Yoz», «Sokinlik» asarlari ijodidagi ohirgi davrga mansub bo'lib, u yana dekorativlikka, yorug'likka, erkin rasm chizishga, umuman olganda, ijodiy ruxning rang-barangligiga qaytganini anglatardi. 3. Kovalevskayaning «Olmalar bilan natyurmort», «P. Benkovning portreti», «Xordik» va boshka kartinalari ham rassom ayolning ijodiy mahoratini oshkor etadi.



“Tabelchi” 1958 y.


Fadeev V. A (1912-1990)

Mato, moybo'yoq. 196x135 sm.

1950 yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston tasviriy san'atida R. Axmedov, N. Kuziboyev, A. Abdullayev, M. Saidov, T. Oganesov, V. Jmakin, Yu. Elizarov kabi akademik yunalishdagi rassomlarning ijodiy izlanishlari bilan yangilangan realizm tantanasi hukm sura boshlaydi. Kolleksiyada takdim etilgan ularning ishlarida usha davrning ruhiy izlanishlari aks etadi va O'zbekiston rassomlik san'ati tarixining oltin fondini tashkil qiladi. Mazkur rassomlarning tushunchasidagi milliy uziga hoslik milliy portret tipajlari, janr sahnalari, milliy tabiat manzaralari orqali tasvirlanadi. Aynan shunday talqin rasmiy estetika deb belgilangan bo'lib, uzining uslubini turli milliy maktablarda topdi.

1960 yillarda badiiy boyishning yangi shaklarini qidirish, umuman uzgacha plastik g'oyalarni tasdiklash yuz berdi. Ushbu davrdan boshlab O'zbekiston rassomlik

san'atida turli badiiy yunalishlarning muayyan plyuralizmi (fikrlar hilma hilligi) boshlanadi. Bu borada mazkur davrning katta avlodi Ch. Axmarov, Sh. Xasanova, shuningdek, R. Choriyevning ishlari tahsinga sazovor bo'ldi. Masalan, buyuk usta Ch. Axmarovning «Qiz», «Nodira», «Raqqosa», «Usmir» kartinalarida rassom tomonidan tarixiy-madaniy merosning muhim kismini miniatyura sanati sifatida ijodiy fikrlashini kursak, R. Choriyevning «R. G'amzatov portreti», «Kelin» ishlarida biz ijodiy izlanishning umumiy nafasini, birmuncha manan va uslubiy, boy dunyoqarash va obrazli plastik buyoqlarni his qilamiz.



"Jarqo'rg'onlik bog'bon" 1995 y

Qo'ziyev T. K. (1951)

Mato, moybo'yoq. 55x66 sm.

1970 va 1980 yillarning birinchi yarmida O'zbekistondagi rassomlik rang-barangligi va badiiy-uslubiy yunalishlarning uzaro tasiri, ananalarning keng doirasiga murojaat, janr tuzilmalarining evolyusiyasi, keng tematik doira, ijodiy individuallikning rang-barangligi bilan ajralib turadi. Dekorativ yunalish S. Abdullaev, SH. Abdurashidov, A. Mirzayev, R. SHodiyevning ijodida rivojlanadi.

A. Mirzayevning «Kuzgi g'amhurliklar», «Suqoq», «Parkent ayollari», «Qizil oktosh» ushbu yunalish uchun hos bo'lib, rasm hayotni rang bilan takdim etadi, unda inson va tabiat o'yg'unlashadi.

Ayni paytda usib boruvchi hususiyatga ega badiiy tafakkur turli rassomlar ijodida uz ichki potentsialini namoyon etadi, har bir konkret xolatda ularning dunyoni kanday tasavvur kilishi, chizma plastik izlanish harakteri toblanib boradi. J. Umarbekov, B. Jalolov, M. Tuxtayev, S. Alibekov, G. Boymatov, A. Isayevning ijodi bunga misol bo'la oladi. Olaylik, J. Umarbekovning "Xusayn Boykaro va Alisher Navoiy bolalikda" yoki B.

Jalolovning DSM kolleksiyasidagi “Avtoportret” asarlari san’atda yangi shabbodalar esa boshlaganidan, badiiy ananalar yanada kengrok tushunilayotganidan, uz madaniyatining milliy manbalariga murojaat qilinayotganidan dalolat beradi.

Avlodlar almashinuvi, chukur ruxiy izlanishlar, utgan bosqichdagi ijodiy yutuqlarni anglash 1980 yillarning ikkinchi yarmi va 1990 yillarning boshida san’atta kirib kelgan yoki san’atda uz o’slubini topgan o’zbek rassomlarining avlodi uchun ham xususiyatlidir. L. Ibragimov, A. Nur, G. Kodirov, N. Imomov, M. Isanov, F. Axmadaliyevning ijodida nafakat muayyan uslubiy an’analarga murojaat, balki kadron o’lka, xalk, madaniyat, psixologiya, mentalitet bilan manan va ruxan bog’lanish mavjudligini kuzatish mumkin.



“Sirdaryo” 1985 y.

Alibekov S. A. (1956)

Mato, moybo’yoq. 150x180 sm.

DSM jamlanmasidagi grafika kolleksiyasi ham beqiyos qiziqish uyg’otadi. Undan V. Eremyan, S. Malta, V. Kaydalov, K. Basharov, M. Kagarov, V. Apuxtin, T. Muxamedov, M. Sodikov kabi taniqli rangtasvirchilarining ishlari o’rin olgan. Xar bir rassom, uning ijodi - bu uz davrining aniq tarixiy bosqichi oynasi.

XX asrning boshidan bugungi kungacha O’zbekiston tasviriy san’ati uziga hos evolyutsiya - tarakkiyot boskichini bosib o’tdi. O’zbekistonning zamonaviy tasviriy san’ati - turli ijodiy nematlar tashkil etadigan turfa rangli mozaika, desak tugriroq bo’ladi. Zamonaviy o’zbek rassomlarining ijodi turli badiiy maktablar,

an’analar, ijodiy izlanmalar yigindisi bo’lib, umuman olganda, yagona zamonaviy o’zbek madaniyatining milliy uziga hosligini shakllantiradi. Bir toifa rassomlar ijodida asrlar karidan qalkib chiqayotgan milliy jihatlar yig’indisi seziladi. Boshkalar ijodida esa nafakat ut mish, balki XX asrning jahon badiiy tajribasi sifatida tug’ilgan yangi zamonaviy voqelik tajribasi kuzatiladi.

Umuman, takidlashni istardikki, O'zbekiston rassomlari ijodi nafaqat turli avlodlar, uslubiy yunalishlar, ijodkorlarning uziga xos tutashgan chorraxasi, balki Shark va G'arbning ruhiy izlanishlari, sivilizatsiya va madaniyatlar, globallashuv va Milliy uzlikni anglash intilishlari tutashgan nuqtasidir. Uning diqqat markazida esa har zamonda bulgani kabi xazrati Inson turadi.

Bularning bari O'zbekiston Respublikasi Davlat San'at muzeyi Milliy tasviriy san'ati noyob kolleksiyasida namoyon bo'ladi. U albatta yangi asarlar va yutuqlar bilan tuldirilishi va boyitilishi, bizning Milliy madaniyatimizning yangi qirralarini ohib berishi lozim.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullaev N.A. O'zbekiston Milliy portret sanati. -Toshkent: 2011.
2. Veymarn B. Iskusstvo Sredney Azii. M. - L., «Iskusstvo», 1940.
3. Maxmudov T. XX asr san'atida realizm. – San'at, 1999/1-son.
4. Xakimov A.A 1920-1980 yillar O'zbekiston san'ati. — San'at 1999yil/4son.